

Andijon viloyatida oliy ta'lim tizimi 2020-2021 o'quv yili boshiga



Ma'lumot uchun



Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar yillik ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga — *bakalavriat va magistratura* bosqichiga ega. **Bakalavriat** oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida 3 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir. Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.



2020-2021 o'quv yili boshiga Andijon viloyatida oliy ta'lim muassasalarining soni 6 tani tashkil etdi. Ulardan 5 tasi Andijon shahrida va 1 tasi Andijon tumanida joylashgan. Oliy ta'lim muassasalarining 2 tasi universitet hisoblanadi. Ushbu o'quv yilida Andijon qurilish va iqtisodiyot instituti o'z faoliyatini boshladi.



2020-2021 o'quv yili boshida Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalari



**Andijon Davlat
Tibbiyot instituti**



**Andijon Davlat
Universiteti**



**Andijon qishloq xo'jaligi
agrotexnologilar insituti**



**Andijon Masinasozlik
instituti**



SHARDA Universiteti



**Andijon Iqtisodiyot
va qurilish instituti**

Universitet - oliy va undan keyingi ta'lim uchun ta'limni bir necha yo'nalishda beradi, turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi, fanning turli yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi, ilm sohasi bilan chambarchas bog'liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi



Institut - oliy ta'limdan keyingi o'quv dasturlarini bajarishni ta'lim va fanning ma'lim bir me'yorida amalga oshiradi. Mutaxassislarni ma'lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi, fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.



2020-2021 o'quv yilida jami 30895 nafar talabalarning 26261 nafari (85,0 %) to'lov kontrakt bo'yicha, 4634 nafari (15,0%) davlat granti bo'yicha ta'lim oladilar.

Jami talabalarning 14573 nafari yoki 47,2 % ni qizlar tashkil etadi.

Talabalarning 29855 nafari oliy ta'limning bakalavr bosqichida, 1040 nafari magistratura bosqichida ta'lim olmoqdalar.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining soni dinamikasi (ming kishi)

2015-2016
o'/y - 17,4

2016-2017
o'/y - 17,6

2017-2018
o'/y - 19,2

2018-2019
o'/y - 21,7

2019-2020 o'/y
26,0

2020-2021 o'/y
30,9



**2020-2021 o'quv yilida
viloyat oliy ta'lim
muassasalariga 7897 nafar
abiturient talabalikga
qabul qilindi. Jumladan :
ulardan 6190 nafari
kunduzgi bo'limga, qolgan
1707 nafari sirtqi bo'limga.**

**Jami qabul qilingan
talabalarning 6168 nafari
to'lov kontrakt bo'yicha,
hamda 1729 nafari, yoki
21,9 foisi davlat granti
bo'yicha ta'lim oladilar.**

**Bundan tashqari
talabalikka qabul
qilinganlarning 3696 nafari
(46,8%) ni qizlar tashkil
etadi**



2020 yilda Andijon viloyatidagi oliy ta'lim muassaslarini 4622 nafar talaba tamomladilar. Bitiruvchilarning 1257 nafari davlat granti, qolgan 3365 nafari to'lov-kontrakt bo'yicha bitirdilar.

Jami bitiruvchilarning 1766 nafari yoki 38,2 % qizlardan iborat. Ularning 1680 nafari bakalavr, 86 nafari magistr hisoblanadi.

2021 yilda viloyat oliy ta'lim muassasalarini 5142 nafar talabalarning bitirishi kutilmoqda.

Joriy yilda bitiruvchilarning 4622 nafari diplom oldilar. Ulardan 4385 nafari bakalavr, 237 nafari magistrlardan iborat.



ANDIJON VILOYATI OLIY TA'LIM MUASSASALARINING BAKALAVRIATI

2020-2021 o'quv yili boshida oliy ta'lim muassaslarining bakalavr bosqichidagi talabalar soni 29855 nafarni tashkil etdi. Ulardan 23558 nafari kunduzgi, 6297 nafari sirtqi bo'limda ta'lim oladilar. Jami talabalardan 4230 nafari davlat granti bo'yicha, qolgan 25625 nafari to'lov kontrakt bo'yicha o'qimoqdalar.

Talabalar umumiy sonidan 14177 nafari, yoki 47,5 % qizlardan iborat. Ulardan 10852 nafari kunduzgi, 3325 nafari sirtqi bo'limda ta'lim oladilar.



2020-2021 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarining bakalavr bosqichiga 7512 nafar abituriyent qabul qilindi. Ulardan 5805 nafari kunduzgi, 1707 nafari sirtqi bo'limda ta'lim oladilar.

Davlat granti bo'yicha qabul qilingan talabalar soni 1517 nafarni tashkil etdi. Ulardan 1484 nafari kunduzgi, 33 nafari sirtqi bolim talabalari hisoblanadi

2020-2021 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarining bakalavr bosqichini 4385 nafar talabalar bitirdilar. Ulardan 1174 nafari yoki 26,8 % davlat granti bo'yicha tamomladilar.

Jami bitiruvchilarning 1680 nafari yoki 38,3 % ni qizlar tqshkil etdi.

Kelgusi o'quv yilida bakalavr yo'nalishi bo'yicha 4632 nafar talabalar bitirishi kutilmoqda.



2020-2021 o'quv yilida Andijon viloyatidagi oliy ta'lim muassalarining bakalavr bosqichiga 174194 ta abituriyentlar ariza topshirdilar. 100 o'rin uchun topshirilgan arizalar soni 2319 tani tashkil etdi. Ulardan 7512 nafari, yoki 4,3 % talabalikga qabul qilindi.

Topshirilgan arizalarning 99209 tasi, yoki 57,0 % oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limi hissasiga to'g'ri keladi. 100 o'rin uchun topshirilgan arizalar soni 1709 tani tashkil etdi. Ushbu yo'nalish bo'yicha 5805 nafar abituriyent talabalikga qabul qilindi



ANDIJON VILOYATI OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MAGISTRATURASI



Jami magisrlar soni- 1040 nafar
Shu jumladan qizlar- 396 nafar

Qabul qilingan talabalar - 385 nafar;
Bitirgan talabalar - 237 nafar

Oliy ta'lim muassalaridagi talabalarning yosh bo'yicha taqsimlanishi, (kishi)



Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'qitish tillari bo'yicha taqsimlanishi, (birlik)

2020 -2021 o'quv yili boshida Andijon viloyati oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami 30895 nafar talabalarning 26317 nafari (85,2 %) o'zbek tilida, 4014 nafari (130,0 %) rus tilida, 533 nafari i(1,7 %) ingliz tilida va qolgan 31 nafari (0,1 %) qirg'iz tilida ta'lim olmoqdalar.



OLIY TA'LIM MUASSASALARINING PROFESSOR-O'QITUVCHI XODIMLARI

Iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan innovatsion texnologik yangilanishlar qachon samara beradi? Qachonki bu o'zgarishlarni yurakdan his qilib, eng zamonaviy bilim va malaka talablarini o'zida jamlagan, tashabbuskor, ma'naviy yetuk mutaxassis xodim bilan ta'minlansa. Munosib kadrlarni tayyorlashda pedagog-xodimlarning xizmati juda ahamiyatli



2020-2021- o'quv yili boshida Andijon viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar soni 2104 (asosiy shtatdagi) nafarni tashkil etadi. Bundan tashqari 240 nafar o'rindosh pedagog xodimlar faoliyat olib boradilar. Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalaridagi jami professor-o'qituvchilarning 887 nafarini, yoki 42,2 % ni ayollar tashkil etadi.

Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi ,(*asosiy shtatdagi*)



Professor-o'qituvchilar
shu jumladan:

Ilmiy darajaga ega
bo'lganlar

Ilmiy
unvonga ega
bo'lganlar

Fan
doktorlari-
92



Fan
nomzodlar
i-368

Falsafa
doktorlari
-105

Professorlar
-58

Dotsentlar-
324

Oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilar soni dinamikasi, (nafar)



2010-2011 o'/'y	- 1465
2011-2012 o'/'y	- 1369
2012-2013 o'/'y	- 1360
2013-2014 o'/'y	- 1466
2014-2015 o'/'y	- 2039
2015-2016 o'/'y	- 1681
2016-2017 o'/'y	- 1657
2017-2018 o'/'y	- 1753
2018-2019 o'/'y	- 1825
2019-2020 o'/'y	- 2346
2020-2021 o'/'y	- 2104

Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha ststistikasi bo'limi
Telefon (074) 224-82-69

